

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTI
FARMONLARI VA QARORLARI ASOSIDA 2007–2010-YILLARDA
O‘ZBEKISTONDA PENSIONERLAR, YOLG‘IZ KEKSALAR,
NOGIRONLAR HAMDA IKKINCHI JAHON URUSHI
QATNASHCHILARINI IJTIMOY HIMOYA QILISH SIYOSATI:
ISLOHOTLAR, NATIJALAR VA IJTIMOY SAMARADORLIK
TAHLILI.**

*Z.R. Axmedov — A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani MMTBga qarashli
49-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining yoshlar masalalari va ma’naviy-
ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari.*

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2006-yil 7-sentabrdagi “2007–2010 yillarda yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, 2007-yil 17-oktyabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon hamda 2010-yil 24-martdagi “Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 65 yilligi nishonlanishi munosabati bilan 1941–1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmon mamlakatimizda keksalar, pensionerlar, nogironlar va urush faxriyalarini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishning mustahkam huquqiy asoslarini yaratib, aholining ushbu qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini yangi bosqichga olib chiqqan muhim normativ-huquqiy hujjatlar sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

2007-yil 17-oktyabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonning amaliy ijrosi natijasida Jarqo‘rg‘onneft ochiq aksiyadorlik jamiyatida uzoq yillar mehnat faoliyatini olib borgan va nafaqaga chiqqan 165 nafar faxriyga jami 6,5 mln. so‘m

miqdorida qo'shimcha nafaqa berildi. [15]

2007–2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida”gi Qarorda qayd etilishicha, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 7-dekabrda 520-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2000–2005 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturi doirasida 8 ming nafarga yaqin yolg'iz pensioner va nogiron istiqomat qilayotgan 33 ta “Saxovat” va “Muruvvat” uylarining moddiy-texnika bazasi yaxshilangan. Shuningdek, “Homiylar va shifokorlar yili” Davlat dasturi ijrosi yuzasidan aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga, jumladan yolg'iz keksa kishilarga yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 1,9 ming nafar yolg'iz fuqarolarning uy va xonadonlari ta'mirdan chiqarilib, kam ta'minlangan oilalar hamda keksalarga 5 mlrd. so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatilgan. Umuman olganda, yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlar va ko'p bolali oilalarga berilgan ijtimoiy yordam hajmi 47 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etgan. [1]

Mazkur Dasturda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Jumladan, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, tibbiy-profilaktik yordam bilan qamrov darajasini kengaytirish, gerontologiya va geriatriya yo'nalishlarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish hamda uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash nazarda tutildi. Shuningdek, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarining, sanatoriylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakllari, usullari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

2010-yilda Samarqand shahar “Nuroni” jamg'armasi shahar hokimligi hamda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda urush va mehnat faxriylari, shuningdek, yakka-yolg'iz keksalarni ijtimoiy muhofaza qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirgan. Bu haqda

“Nuroni” jamg'armasi Samarqand shahar bo'limi Kengashi raisi Tursun Safarov ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda shahrimizda 45 mingdan ziyod pensionerlar bo'lib, ularning 30 ming 574 nafari keksa faxriylardir. Shuningdek, 299 nafar o'zgalar ko'magiga muxtoj, yakka-yolg'iz, betob keksalarimiz mavjud. O'tgan (2009) yilda 7652 nafar keksa 105 million 610 ming so'mlik dori-darmon bilan taminlandi. Yil davomida urush va mehnat faxriylarining uylariga borilib, ularni holidan xabar olindi. [2]

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari, urush orti mehnat faxriylari, o'zgalar yordamiga muhtoj keksalar hamda 100 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga moddiy, ma'naviy va tibbiy yordam ko'rsatish masalalari davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda “Nuroni” jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi, shahar va tuman bo'linmalari tomonidan faxriylar va keksalarni e'zozlash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator amaliy tadbirlar amalga oshirilgan. Bu haqda “Nuroni” jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi Kengashi raisi J. Muyatdinov ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Respublikamizda 400 nafardan oshiqroq ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 186,6 ming nafar mehnat faxriylari va pensionerlar, 6342 nafar urush orti mehnat faxriylari, 55 nafar 100 va 100 yoshdan oshgan otaxon va onaxonlar, yordamga muhtoj 1684 nafar yakka-yolg'iz keksalar istiqomat qilmoqda. “Nuroni” jamg'armasi shahar va tuman bo'linmalari faollari, “Mahalla” jamg'armasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, Xotin-qizlar qo'mitasi va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yordamga muhtoj yakka-yolg'izlar, urush qatnashchilari va nogironlari, 100 yoshdan oshgan qariyalar ziyoratda bo'lishdi, uylarida va shifoxonalarda davolanayotgan faxriylardan borib xabar olindi, ularga 8445,0 ming so'mlik bayram sovg'alari topshirildi.[3]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 24-martdagi “Ikkinchi jahon urushidagi G'alabaning 65 yilligini nishonlash munosabati bilan 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlarini mukofotlash

to'g'risida"gi Farmonida urush qatnashchilari va nogironlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jasorati hamda fidokorona xizmatlariga munosib baho berish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda Samarqand viloyati "Nuroni" jamg'armasi hamda "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-himoyaviy tadbirlar urush faxriylariga nisbatan davlat va jamiyat g'amxo'rligining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatida 1100 nafardan ortiq Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari istiqomat qilgan bo'lib, ularga ko'rsatilgan moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ko'mak chora-tadbirlari tarixiy xotirani asrash, faxriylarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlash hamda yosh avlod ongida vatanparvarlik, fidoyilik va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.[4]

Farmon ijrosi doirasida Jizzax shahri mahallalarida urush qatnashchilari, mehnat faxriylari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Bobur mahallasida 270 nafar kam ta'minlangan oila, 560 nafar nogiron, 9 nafar yolg'iz keksalar hamda 3 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari istiqomat qilgan. Mazkur toifadagi fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida muntazam ravishda moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatilib, bayram tadbirlari tashkil etilgan. Jumladan, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan 30 nafar nogiron, yolg'iz keksalar, urush va mehnat faxriylari uchun xayriya tadbiri o'tkazilib, ularga esdalik sovg'alari topshirilgan. Shuningdek, urush va mehnat faxriylari uchun Samarqand shahridagi Imom al-Buxoriy majmuasi hamda Baxmal tumanidagi ziyoratgohlarga ma'naviy-ma'rifiy sayohatlar uyushtirilgan. [6] Bu kabi tadbirlar faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 24 martdagi "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 65 yilligi nishinlanishi munosabati bilan 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlarini mukofotlash to'g'risida" gi farmoniga asosan 10435 nafar urush qatnashchilari va

nogironlarining har biri “1941-1945 yillardagi Ulug` Vatan urushidagi g'alabaning 65 yilligi yubiley medali va 200 ming so'mdan pul mukofotlari bilan taqdirlandi. [8]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 25-martdagi 9-may – Xotira va qadrlash kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi majlis bayoni ijrosi doirasida “Nuroni” jamg'armasi tomonidan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari soni aniqlanib, tegishli ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdim etilgan. Jumladan: “Ularning soni 2010 yil 20 aprel holatiga ko'ra 10625 nafarni, urush orti mehnat faxriylarining umumiy soni 140 ming nafarni, halok bo'lgan jangchi oilalarning soni 3042 nafarni tashkil etadi”. [5]

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, nogironlari, urush orti mehnat faxriylari hamda halok bo'lgan jangchi oilalari mahalliy hokimliklar ko'magida korxona va tashkilotlarga biriktirilib, “Nuroni” jamg'armasi tavsiyasi asosida tibbiy va moddiy yordamlar bilan ta'minlangan. Jumladan: “Xalqaro “sog'lom avlod uchun” jamg'armasi tomonidan muruvvat yordami sifatida 52 dona aravacha ajratilishi kelishib olindi. [5]

2010-yil “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan Toshkent viloyatida davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilgan. “Nuroni” jamg'armasi viloyat bo'limi ma'lumotiga ko'ra, o'tkazilgan hashar tadbirlarida 25 mingdan ortiq faxriy ishtirok etib, 548 dan ortiq qabristonlar tartibga keltirildi va obodonlashtirildi. Shuningdek, 790 nafar faxriy uchun respublika bo'ylab ziyorat safarlari tashkil etildi, uyda yotib qolgan 297 nafar faxriyga esa manzilli yordam ko'rsatildi. Bayram tadbirlari doirasida faxriylarga moddiy va homiylik yordamlari berilib, turli tashkilotlar tomonidan dori-darmon va sovg'alar taqdim etildi. [7]

“Nuroni” jamg'armasining yarim yillik faoliyati yuzasidan Markaziy Kengash raisi E. Boqiboyev tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, hisobot davrida tashkilot tomonidan urush va mehnat faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash,

ularning turmush sharoitini yaxshilash hamda manzilli yordam ko'rsatishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Respublikada 3 millionga yaqin pensionerlar, jumladan 10 435 nafar urush qatnashchilari, 150 mingdan ortiq urush orti mehnat faxriylari, 30 mingga yaqin yolg'iz keksalar va 3 042 nafar halok bo'lgan jangchi oilalari istiqomat qiladi. Hisobot davrida 28,5 ming nafar yolg'iz keksalarning 74,4 foizi uyda ijtimoiy xizmat bilan qamrab olingan, 8 mingdan ortiq pensionerga 800 mln so'mlik oziq-ovqat yordami ko'rsatilgan. Shuningdek, 137 ming nafar ehtiyojmandga 4 151 mln so'mlik moddiy yordam berilib, 1 509 nafarining uy-joylari ta'mirlangan, 27,5 ming kishi tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan hamda 598 nafari reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlangan. Jamg'arma tomonidan ushbu maqsadlar uchun jami 313 mln so'm mablag' sarflangan. [9]

2010-yilning birinchi yarim yilligi davomida Samarqand viloyatida urush qatnashchilari va nogironlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 10 476 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 6 276 nafar yolg'iz keksalar va 7 965 nafar nogironlarning holidan xabar olinib, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi. Tashkilotlar va homiyilar hisobidan jami 2 mlrd so'mdan ortiq moddiy yordam ajratildi, shundan "Nuroni" jamg'armasining hududiy bo'limlari tomonidan 149 mln so'm mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, "Dori-darmon" AJ tomonidan tayyorlangan 10 230 dona dori to'plami (umumiy qiymati 106 mln so'm) faxriylarga yetkazib berildi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi bilan hamkorlikda 50 dona nogironlik aravachasi ajratilib, ular "Nuroni" jamg'armasi vakillari tomonidan ommaviy axborot vositalari ishtirokida tantanali ravishda topshirildi. [9]

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, ayniqsa nogironlar va keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Nuroni" jamg'armasi Xorazm viloyat bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, bu yo'nalishdagi ishlar hududda izchil davom ettirilgan. Jumladan, Xorazm viloyatida urush va mehnat faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda sog'lig'ini tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga

oshirildi. Yilning birinchi choragida 1336 nafar faxriy davolanib chiqdi, 162 mln so'm sarflandi, 500 ming so'mlik dori-darmon topshirildi, faxriylarning 68 foizi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi hamda 35,9 mln so'mlik imtiyozli dori vositalari tarqatildi. 386 nafarga ko'z gavhari o'rnatildi, 815 nafar sihatgohlarda davolandi, 10 nafar Gerontologiya markazida sog'lomlashtirildi, 7 nafar bepul sihatgohda davolandi. Shuningdek, 119 nafariga hassa va qo'ltiqtayoq, 38 nafariga eshitish moslamasi, 78 nafariga nogironlik aravachasi, 182 nafariga protez-ortopediya vositalari berildi, ularning 50 foizi homiylik hisobidan ta'minlandi. Homiylik tomonidan 12,5 mln so'm mablag' yo'naltirildi. [10]

Yoshlarni keksa avlodga hurmat ruhida tarbiyalash, urush va mehnat faxriylarining jamiyat hayotidagi xizmatlarini e'tirof etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu haqda "Nuroni" jamg'armasi Farg'ona viloyat bo'limi Kengashi raisi Xoldorov Topiboldi quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Viloyatda 1157 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 17751 nafar front orti mehnat faxriysi va 1071 nafar halok bo'lgan jangchi oilalari ro'yxatga olingan. Ularga 1100 ta "G'amxo'rlik guruhlari" orqali 4560 nafar yosh birlashtirilib, 73 nafar faxriy xonadonida amaliy yordam ko'rsatildi. 100 va undan yuqori yoshdagi faxriylarga alohida e'tibor qaratildi. 120 nafar faxriy Shohimardonda bepul davolandi (14 mln so'mdan ortiq homiylik mablag'i hisobidan). 8 mart munosabati bilan 15,5 mln so'm, "Navro'z" bayrami doirasida 5,8 mln so'm xayriya yordami ajratildi, homiylik hisobidan 29,6 mln so'm sarflandi. 856 ta tadbir o'tkazilib, ularda qariyb 6 ming faxriy ishtirok etdi. [11]

Istiqlol yillarida keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Nuroni" jamg'armasi Qashqadaryo viloyat bo'limi Kengashi raisi Yanvar Inoyatov ma'lumotiga ko'ra, "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi doirasida faxriylarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, viloyatda 169821 nafar urush va mehnat faxriylari istiqomat qiladi, ulardan 523 nafari urush nogironlari, 16610 nafari urush orti mehnat faxriylari hisoblanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida 1 412 603 ming so'm mablag' sarflangan, 1445 nafar ehtiyojmandga 17540,0 ming so'm

moddiy yordam ko'rsatilgan. Xayriya va homiylik tadbirlari turli korxona, tashkilot va fermer xo'jaliklari ishtirokida amalga oshirilgan. Tibbiy yo'nalishda 138207 nafar faxriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 41874 nafari shifoxonalarda, 406 nafari "Nuroni" shifoxonasida davolangan, 1931 nafari sihatgohlarda sog'lomlashtirilgan. 7606 nafariga 43768,1 ming so'mlik dori-darmon berilgan, shuningdek, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan 34 nafar faxriy yo'qlangan. [12]

"Nuroni" jamg'armasi Samarqand viloyat bo'limi "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi doirasida keksa avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirgan. Bu haqda Kengash raisi H. Normurodov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Viloyatda 201410 nafar faxriy istiqomat qiladi, ulardan 1079 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari, 13000 nafari urush orti mehnat faxriylari, 761 nafari esa halok bo'lgan jangchilar oilalaridir. 158 nafar faxriy 100 yosh va undan yuqori yoshdagilarni tashkil etadi, 1000 dan ortig'i ilmiy darajaga ega. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida 1620 nafar yolg'iz keksalar ro'yxatga olinib, 15 ta reabilitatsiya prokat punktlari ochildi, 2010-yilning birinchi yarmida 230 nafariga 2767,9 ming so'mlik yordam, 1468 nafariga transport va maishiy xizmatlar ko'rsatildi. 104 ta nogironlar aravachasi, 33 eshitish moslamasi va 100 hassa hamda qo'ltiqtayoch berildi, 1983 nafar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 993 nafari davolandi. Shuningdek, 931 nafar yolg'iz va nogiron 10,8 mln so'mlik dori-darmon bilan ta'minlandi, 90 nafarining uylari 22141,0 ming so'm evaziga ta'mirlandi hamda urush qatnashchilariga 11,3 mln so'mlik aptechkalar yetkazildi. [12]

Mustaqillikning 19 yilligi hamda "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi doirasida keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada "Nuroni" jamg'armasi Buxoro viloyati kengashi raisi Yu. Qurbonovning ma'lumotlariga ko'ra, bayram tadbirlari davomida jamg'armaning viloyat, shahar va tuman bo'linmalari tomonidan 300 nafardan ortiq faxriyga umumiy qiymati 886 ming so'mlik moddiy yordam va qimmatbaho sovg'alar topshirilgan. Shuningdek,

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi asosida jamg‘arma faoliyati tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilib, yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda oilaning tarbiyaviy ahamiyatini targ‘ib etishga bag‘ishlangan “Qadr” nomli risola nashr etilgan. Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj, yolg‘iz keksalar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar va nogironligi bo‘lgan fuqarolarga “Nuroni” va “Mahalla” jamg‘armalari hamda homiylar mablag‘lari hisobidan 60 mln so‘mdan ortiq muruvvat yordami ko‘rsatilgan bo‘lib, shundan 2 mln so‘mi bevosita “Nuroni” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan. [13]

2010-yilda amalga oshirilgan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi doirasida Qashqadaryo viloyatida keksa avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va faxriylar tashkilotlari faoliyatini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilgan. “Nuroni” jamg‘armasi viloyat bo‘limi Kengashi raisi Yanvar Inoyatov ma‘lumotiga ko‘ra, viloyatda 172 229 nafar urush va mehnat faxriysi ro‘yxatda bo‘lib, shundan 712 nafari urush qatnashchisi, 477 nafari urush nogironi hamda 16 088 nafari front orti mehnat faxriylarini tashkil etgan. Shu bilan birga, 215 560 nafar fuqaro pensiya va nafaqa olgan hamda ularga har oy 30 mlrd 488,1 mln so‘m mablag‘ to‘langan.

Davlat dasturi vazifalarini amalga oshirish doirasida urush va mehnat faxriylari, nogironlar hamda 100 va undan yuqori yoshdagi keksalarga moddiy yordam ko‘rsatish, bayram va tarixiy sanalar munosabati bilan tadbirlar tashkil etish uchun “Nuroni” jamg‘armasi va homiylar tomonidan jami 2 136 149 so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Ayniqsa, Qarshi shahri, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Qamashi, G‘uzor va Kasbi tumanlari bo‘linmalari ijtimoiy himoya tadbirlarini samarali tashkil etdi. Ushbu jarayonda “Sho‘rtangazkimyo” majmuasi, paxta tozalash korxonalari, “Kosonyog‘”, “Dunyo-M”, “Qashqadaryodonmahsulotlari”, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlarning homiylik faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi [14]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar mamlakatda pensionerlar, yolg‘iz keksalar, nogironlar hamda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini ijtimoiy himoya

qilishning huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirdi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy himoya tizimini izchil takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini joriy etish hamda keksa avlodning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi. Natijada, O'zbekistonda keksalarni ijtimoiy himoya qilish siyosati bosqichma-bosqich institutsional rivojlanib, keyingi davrlarda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar uchun mustahkam tashkiliy-huquqiy poydevor yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Nuroniylar gazetasi

1. "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov. Nuroniylar O'zbekiston faxriylari gazetasi 2006 yil, 15 sentyabr 37 (321) son
2. "Keksalari e'zoz topgan yurt" "Nuroniylar" jamg'armasi Samarqand shahar bo'limi Kengashi raisi Tursun Safarov Nuroniylar O'zbekiston faxriylari gazetasi 2010-yil, 26-fevral 9 (501) son
3. "Ezgu ishlar davom etadi" "Nuroniylar" jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi Kengashi raisi J. Muyatdinov Nuroniylar O'zbekiston faxriylari gazetasi 2010-yil 5-mart 10(502) son
4. "Hamkorlikda hikmat ko'p" O'z muxbirimiz Nuroniylar gazetasi 2010-yil, 16-aprel 16(508) son
5. "Qutlug' ayyom qadri". Nuroniylar gazetasi 2010-yil, 30-aprel 18 (510) son
6. "Ezguliklar davomi" Jizzax shahar Mirzo Bobur nomli mahalla fuqarolar yig'ini kotibasi Feruza Azizova Nuroniylar gazetasi 2010-yil, 7-may 19-20 (511-512) son
7. "Jonbozlik ko'rsatib" "Nuroniylar" jamg'armasi Toshkent viloyati bo'limi raisi N. Nasimov Nuroniylar gazetasi 2010-yil, 14-may 21 (513) son

8. “Kekslar ko'kdagi duogo'y quyosh” Temur Ubaydullo. O'zbekiston faxriylari gazetasi 2011-yil, 22-iyul 29 (573) son

9. “Har bir faxriy-fidoi” O'z muxbirimiz. Nuroniy O'zbekiston faxriylari gazetasi 2010-yil, 30-iyul 31 (523) son

10. Yoshullilar xizmatida” “Nuroniy” jamg'armasi Xorazm viloyat bo'limi Kengashi raisi Bobojonov Bahodir Nuroniy gazetasi 2010-yil, 6-avgust 32 (524) son

11. “Ko'ngillarni shod etaveramiz” “Nuroniy” jamg'armasi Farg'ona viloyat bo'limi Kengashi raisi Xoldorov Topiboldi. Nuroniy gazetasi 2010-yil, 13-avgust 33 (525) son

12. “Qutlug' bayramga munosib sovg'alar” “Nuroniy” jamg'armasi Qashqadaryo viloyat bo'limi Kengashining raisi Yanvar Inoyatov Nuroniy O'zbekiston faxriylari gazetasi 2010-yil, 20-avgust 34 (526) son

13. “Doimiy burchimiz” “Nuroniy” jamg'armasi Buxoro viloyati kengashi raisi Qurbonov Yu Nuroniy faxriylari gazetasi 2010-yil, 15-oktyabr 42 (534) son

14. “Barakali va omadli yil bo'ldi” Qashqadaryo viloyati “Nuroniy” jamg'armasi viloyat bo'limi Kengashining raisi Inoyatov Yanvar Nuroniy O'zbekiston faxriylari gazetasi 2011-yil, 28-yanvar 4 (548) son

Internet saytlari

15. Yormatov F.J. Nuroniy larni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi erishilgan yutuqlar // Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani, tarix fanlari nomzodi, dotsent. – 2022. <https://cyberleninka.ru> ›